

PUTINNING UKRAINAGA QARSHI URUSHI

Raximov Dilnur Erkin o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: raximovdima244@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqola asosan Rossiya va Ukraina o'rtasidagi ziddiyatlar, to'qnashuvlar va kelishmovchiliklarning kelib chiqishi, sabablari va oqibarlari haqida bayon etiladi. Bugungi kunda hamma davlatlar va hamjamiyatlar diqqat marqazida faqat 1 masala Rossiya va Ukraina o'rtasidagi aniq bir tuxtamga kelmayotgan masala turibdi. Bu yerda Rossiya nima uchun o'z iqtisodiyoti izdan chiqib ketishiga olib keladigan sanksiyalarga qaramasdan Ukrainaga yurish qilib ya'ni uning hududiga bostirib kirdi? Bundan tashqari maqolada 2 mamlakatlarning qurolli kuchlar va uning dunyoda tutgan o'rni haqida ham ma'lumotlar berib utiladi.*

Kalit so'zlar: *Rossiya, Ukraina, AQSH, NATO, Jahon ittifoqi, Buyuk Yevrosiyo, Sharqiy Yevropa.*

Kirish

Rossiya va Ukraina o'rtasidagi bu urush ko'plab tadqiqotchilar va siyosatshunoslar tomonidan har xil sabablari va turli fikrlar bildirib kelinmoqda. Lekin bu yurishning asil sababi keltirilmagan sir bulib qolmoqda. Bu urushda Rossiyaning haqiqati bor deb uylayman. Rossiya aytadiki xafsizlik bu umumiy tushuncha har bitta davlat uz xafsizligini uylashga haqqi bor. Agar Ukraina NATOga a'zo buladigan bulsa. Rossiya Qora dengizga chiqa olmay qolaman deb takidlaydi. Bundan tashqari NATOning yadroviy qurollari Ukraina hududida bulsa, butun bir Rossiya qamalda qolgan buladi. Sant-Petirburgga, Moskvaga yoki bulmasa Rossiyaning boshqa bir hududiga NATOning yadro quroli juda tez vaqtda ya'ni 3-4minutda yetib keladi. Ukraina NATOga kirsa unday keyin Moldova davlati keyin Gruziya davlati unday keyin esa Ozarbayjon davlatlari kiradi bunday keyin esa Rossiya kurinib turibdiki qamalda qolib ketish extimoli bor.

Hozirgi kunda, urushning 7 yildan ortiq davom etgan natijasi bo'lib, ko'p o'lkalar bilan tartibsizliklarga sabab bo'ldi. Urushning natijasi ko'plab xavfli amallarni olib kelgan va bir necha ming nafar odam hayotidan olgan. Bu urush albatta qiynalishga sabab bo'ladi va insonlar uchun juda xavfli holatlar tug'diradi.

Rossiya Ukraina urushi umumiy qilib aytganda 2014 yilda Qrimning Rossiya tomonidan anneksiya qilinishi bilan boshlangan deb aytishimiz mumkin. Ukrainadagi rossiyaparast namoyishlardan so'ng Ukraina hukumati va Rossiya o'rtasida keskinlik kuchaydi va Rossiya Ukraina sharqidagi Donetsk va Lugansk viloyatlaridagi isyonchilarni qo'llab-quvvatlay boshladi. Ukraina hukumati bunga javoban harbiy amaliyotlar boshladi. Rossiya Ukraina urushi xalqaro maydonda ham katta munozaralarga sabab bo'ldi. Ko'pgina davlatlar Rossiyaning Qrimni anneksiya qilishini qabul qilmadi va Ukrainaning hududiy yaxlitligini qo'llab-quvvatladi. Bundan tashqari Sharqiy Yevropaning asosiy markaz davlati ya'ni yuragi Ukraina hisoblanadi. Bundan bilish mumkinki AQSH va Rossiya

manfaatlari Sharqiy Yevropa va Ukraina hududiga to'qnashishi aniq edi. Rossiyaning siyosiy elitasi va geosiyosatchilari tomonidan ham Yevrosiyoni birlashtirish uchun alohida Katta Yevrosiyo konsepsiya ishlab chiqiladi. V.Putin boshchiligidagi rasmiy Moskvaning Katta Yevrosiyo konsepsiyasini amalga oshirish uchun Ukraina ta'sir doirasida bo'lishi lozim edi. Sabab qilib kursatish uchun Ukraina va Belorussiya Rossiyaning Yevropa bilan bog'lovchi oltin ko'prigi hisoblanadi. Agarda bu hududlar Rossiya ta'sir doirasidan chiqsa, geosiyosiy jihatdan Rossiya albatta katta extimol bilan Osiyo davlatiga aylanib qoladi. Bu esa Kremlning katta orzularidan biri bo'lgan Katta Yevrosiyo konsepsiyasini amalga oshirishni yul quymaydi ya'ni sarob bulib qolishibi anglatadi. Ikkinchi Sobiq Ittifoqi parchalanib ketganidan so'ng AQSH va NATO boshchiligidagi g'arb o'z ta'sir doirasini sharqqa tomon kengaytirishda davom etishni boshlaydi. NATOning uchinchi, beshinchi va oltinchi kengashligi natijasida Sharqiy Yevropaning 1 ta davlati unga a'zo sifatida qoladi. 2004-yilgacha bo'lgan davrda Rossiya suvosti kemalari Qora dengiz hududida mavjud bulmagan edi. Lekin Slovakiya Bolgariya, Ruminiya va Boltiqbo'yi respublikalarining NATOga a'zo bo'lishligi natijasida Rossiya o'z suvosti kemalarini Qora dengiz hududiga kirita boshlaydi. 2008-yil Gruziya va Janubiy Osiyo voqealari, shuningdek 2014-yilgi Qirimning anneksiya qilinishligi Donetsk va Lugansk hududidagi voqelar natijasida Ukraina va Gruziya NATOga a'zo bo'lish uchun bor e'tiborini qaratdi. Rossiya esa NATOning yana bir bor Rossiyaning hayotiy manfaatlari mavjud bo'lgan hudud tomon kengayishiga jim qarab tura olmasdi. Ukraina va Gruziyaning NATOga a'zo bo'lishligi Rossiyaning hududi va yaxlitligi uchun albatta haqiqiy tahdid sanaladi. V.Putin boshchiligidagi Kreml 2022-yil boshida AQSH va G'arbdan NATOning sharqqa boshqa kengaymasligi, shuningdek Ukraina va Gruziyaning NATOga a'ziligiga qabul qilmaslini surab murojat qilishadi. Shu voqealar asosida oxir oqibat urush boshlanadi. Rossiya 2022-yilning 24-fevral kuni butun dunyohamjamiyatini va butun dunyo xalqlarini xavotirga slogan urush boshlanadi. Aynun shu kuni Rossiya qattiq harbiy yurishni boshlaydi. Ko'pchilikning fikriga ko'ra bu urush Rossiya foydasiga xal buladi degan xabarlar tarqaladi. Lekin bu urush 1yil utsada hamon barham topganicha yuq. Albatta urush boshlangandan keyin Yevropa davlatlari bundan tashqari AQSH Rossiya davlatiga qarshi kuplab sanksilarni e'lon qila boshlaydi. Masalan Yevropa ittifoqi va AQSH Rossiya davlatiga oltin valyuta zaxirasini bloklashdi. Bulardan tashqari yana misol tariqasida Kanada, AQSH va Yevropa davlatlari Rossiya ychun havo hududini yopib tashladi. Bu sanksiyalarga keyinchalik neytral davlat bo'lgan Shveysariya ham qo'shiladi. Sovet ittifo barchalangach bu ikki davlatalohida alohida ajralishadi va ularning siyosatlari ham turli buladi albatta. Ukraina hokimiyat almanishuvi bilan ko'proq G'arb demokratiyasi tomon, Rossiya esa boshqa tomondan. Bugungi urush 30-yillik siyosatlar natijasi desak ham mubolag'a bulmaydi. Urush davomida Rossiya harbiy yurishlari natijasida Kiyev va Harkvni egallashga urinadi. Shuningdek Ukraina janubidagi katta hududlar ustidan nazorat o'rnatadi.

Rossiya Ukrainaga bostirib kirish siyosati qachon tugashini hech kim aniq qilib keltirib bera olmaydi. Ba'zi manbalarda urushni qishda tugaydi deb aytib utilgan lekin hozirgi kunda bu taxminlar uz natijasini bermadi. bu urushda sezilarli darajada yuqotishlar ham mavjud. Masalan 9mingdan ortiq tinch aholi zararlangan. Bulardan 477tasi o'ldirilgan

hisoblanadi. Bu ma'lumotlar urushning 10 oy ichida bulgan zarar haqida. Putinning Ukrainaga quolsizlantirish va o'z tilini ya'ni ruz tilini davlat tili sifatida ikkinchi til qilish zarurligini takidlab o'tadi. Bu Rossiyaning bir qismi sifatida qushib olish emas, bu Rus imperiyasini qayta to'la-to'kis tiklash degani. Ukraina davlatidan iyun oyigacha 8.1 miliondan ortiq aholi mamlakatini tark etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://kun.uz/uz/news/time/rossia-ukraina-urushi>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/01/03/russia-ukraine-war/>
3. Zbignev Bjezinskiy "Buyuk shaxmat taxtasi"
4. https://oz.sputniknews.uz/geo_Ukraina/
- 5.